IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Maftuna Ziyaqulova

Termiz Davlat Pedagogika instituti , Ilmiy rahbar

Ziyotova Sabrina

Termiz Davlat Pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs 101-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqini shakllantirishda ona tilini o‘rganishning ahamiyati, nutq o‘stirish yo‘llari va nutq tushunchasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ona tili, nutq, vazifa, o‘quvchilar, darslarda, o‘stirish, so‘z, so‘z birikmasi, gap, boshlang‘ich ta’lim, maktab, lingvistik kompetensiyalar.

Yurtimizda kelajagimizning davomchilari bo‘lmish yoshlarga zamonaviy,turli xildagi ilg‘or usullar va metodlarni qo‘llab, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim berish shu bilan birga yoshlarimizni boshqa davlatlar bilan raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi „Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida’’gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi „ O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida’’gi PF-4997-sonli Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi „ Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida ’’gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi „ O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida ’’gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan vazifa va qonunlar o‘quvchi yoshlarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga zamin yaratadi.

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z,so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi.Ona tili dasturlarining bo‘limlari: „Xat savod o‘rgatish va nutq o‘stirish”, „O‘qish va nutq o‘stirish ’’, „Grammatika, imlo va nutq o‘stirish ’’ deb nomlangan.

O‘quvchilar nutqi ona tili darslarida til yordamida atrof-muhit va insonlar hayoti haqida bilim oladilar; ular eshitishni, tevarak-atrofni kuzatishni, o‘ylashni va o‘qib o‘rganganlari haqida ma’lumot berib fikr yuritishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalarning lug‘atini boyitishga samaralari yordam beradi, o‘quvchiga nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi.

Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida mamlakatimizning maktab oldiga qo‘ygan asosiy vazifalaridan biridir.Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ushbu

vazifalarni bajarish o‘quvchilar ongi va nutqini o‘stirishga, ularga axloqiy, siyosiy va estetik jihatdan tarbiya berishga yo‘naltirilgan. Ona tili fanini o‘rganish natijasida o‘quvchilarda o‘z nutqini grammatik va morfologik jihatdan to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, imloviy to‘g‘ri yoza olish va ohang qoidalariga rioya qilgan holda ifodalay olish kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu vazifa o‘quv predmeti sifatida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan umumta’lim vazifalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Darsda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishga, foydalanilgan til materiallarini g‘oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo‘lishiga, tilni o‘rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

Ona tili darslarida o‘zbek tiliga muhabbat va so‘zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o‘rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o‘rin beriladi. Darsda she’r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi: o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, nutq uslublariga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon eta olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat.

K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „ Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rgatadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedogogligi ham ana shundadir “– deydi u.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova.K. „Ona tili o‘qitish metodikasi ’’ Toshkent „NOSIR’’ nashriyoti 2017.

2. Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.Respublika ta’lim markazi — T.:2017. 18- bet.

3. D. Tanlangan pedogogik asarlar.— Toshkent: „O‘zdavnashr”,1959.— 49-bet.